

YURTIMIMIZDA ONA TILI FANIGA BO'LGAN E'TIBOR

Achilova Nasiba Saidovna

Samarqand iqtisodiyot va servis instituti akademik litseyi,
ona tili va adabiyot fani o'qituvchisi.

achilovanasiba63@gmail.com

<https://doi.org/10.5281/zenodo.14450727>

Annotatsiya. Ushbu maqolada ona tilimizga yaratilayotgan imkoniyatlar, ona tilimizga doir amalga oshirilayotgan islohotlar haqida ilmiy fikrlar bayon etilgan. Ilmiy fikrlar faktlarga asoslanib xulosalanadi.

Kalit so'zlar: Ta'lim, dastur, qonun, kadr, masala, sur'at, maktab, muvaffaqiyat, samara, talab, ijodkor, o'qituvchi, jarayon, odat, dars, usul, texnologiya, element, ehtiyoj.

ATTENTION TO THE SCIENCE OF THE MOTHER LANGUAGE IN OUR COUNTRY

Abstract. This article presents scientific opinions on the opportunities created for our mother tongue, the reforms being implemented regarding our mother tongue. Scientific opinions are concluded based on facts.

Keywords: Education, program, law, personnel, issue, pace, school, success, effect, demand, creator, teacher, process, habit, lesson, method, technology, element, need.

ВНИМАНИЕ К НАУКЕ РОДНОГО ЯЗЫКА В НАШЕЙ СТРАНЕ

Аннотация. В данной статье представлены научные мнения о возможностях, создаваемых для нашего родного языка, и реформах, проводимых в отношении нашего родного языка. Научные заключения делаются на основе фактов.

Ключевые слова: Образование, программа, закон, персонал, проблема, темп, школа, успех, эффект, спрос, создатель, учитель, процесс, привычка, урок, метод, технология, элемент, потребность.

Bugungi kunda "Ta'lim to'g'risida»gi Qonun va "Kadrlar tayyorlash Milliy dasturi"da ilgari surilgan masalalar jadal sur'atda umumta'lim maktablarida muvaffaqiyat bilan amalga oshirilmoqda. Qonun talablariga muvofiq ta'lim-tarbiya sifati va samaradorligini oshirish shu kunning talabi bo'lib qoldi. Bu maqsadni amalga oshirish o'qituvchidan izlanishni, ijodkorlikni, o'z ustida tinmay ishlashni talab qiladi. Hozirgi o'quv jarayonida odatdagi dars usullaridan tashqari yangi texnologiya asosida noan'anaviy darslarni tashkil qilish rivojlanib bormoqda.

Ona tili millatning birligi va birdamligining timsolidir. U millatni yagona xalq sifatida o'z atrofida birlashtiradi va dunyoda borliqni ta'min etadi. Har bir millatning o'z Vatani, oilasi bo'lgani kabi uning jonajon va betakror ona tili ham bo'ladi. Inson uchun uning vatani, ota-onasi, oilasi qanchalik qadrlil bo'lsa, uning ona tili ham shu qadar aziz va muqaddas bo'ladi. Hattoki, go'dak ham o'z vatanini, ota-onasini, dunyoni o'z ona tili orqali anglaydi va atay boshlaydi.

Farzand tarbiyasida onaning o'rni beqiyos bo'lganidek, insonning hayotda o'z o'rmini topishida, kamolotga erishuvida tilning o'rni ulkan ahamiyatga ega. Shu bois tilni, onaga qiyoslab ona tili deb ataydilar. Til inson vujudida qon-qoniga singib oqadi. Jamiki, ezgu fazilatlar, avvalo, ona allasi va ona tilining bebaho jozibasi orqali singadi. Inson qalbida ona tiliga nisbatan sof tuyg'u, mehr-muhabbat alanga oladi.

1989-yil 21-oktabrda o'zbek tiliga davlat tili maqomi berildi. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasida o'zbek tili maqomi huquqiy jihatdan mustahkamlab qo'yildi. O'zbek tili haqidagi qonun qabul qilinganidan so'ng barcha davlat hujjatlari o'zbek tilida yuritiladi, gazeta va jurnallar o'zbek tilida chop etila boshlandi. 1993-yil 2-sentabrda "Lotin tiliga asoslangan o'zbek alifbosini tuzish tog'risida"gi qonun qabul qilingandan so'ng, mamlakatimiz har tomonlama rivojlandi va jahon kommunikatsiya tizimidan munosib o'rin egallash muhim ahamiyatga ega bo'ldi. Shu sababli chet ellerda ham o'zbek tiliga qiziquvchilar, uni o'rganuvchilar soni ortib bordi.

Dunyoda 5600 dan ortiq tillar mavjud bo'lib, bundan 200 tasigina davlat tili sifatida qabul qilingan. Ularning orasida o'zbek tilining borligi uning naqadar sof, mukammal, purma'no va jozibadorligidan darak beradi. Rossiyalik tilshunos olim, professor A. M. Kozlyanina "O'zbek tili nafis va musiqa ohangidek jozibador" deb bejiz ta'kidlamagan. Shunday ekan ona tilimizning shundayin go'zalligini, sofligini keying avlodlarga yetkazish bizning vazifamizdir. Negaki, ona tilni ulug'lash, asrab-avaylash o'sha tilda so'zlashadigan har bir insonning burchidir.

Til muloqot vazifasi ham hisoblanadi. Hammamizga ma'lumki, mashhur bo'lgan A. Navoiy bobomizga tegishli "Ko'ngil qulfi maxraning qulfi til va gulfin kalitin so'z bil". Inson qalbining xazinasi til, bu qalb xazinasi kaliti so'zdir. O'zbek tilining so'zlari shu qadar ma'noli, ko'pki bitta ma'noga ega bo'lgan tushunchasi bir nechta so'zlar orqali ifodalash bo'ladi.

Masalan, birgina ko'z so'zining bir necha ma'nolari bor. Bilamizki bir tushunchaga tegishli so'z, bir necha so'zlar bilan ifodalansa, ya'ni sinonim so'zlari qanchalik ko'p bo'lsa, ayni shu til boy til hisoblanadi. Ko'plab adiblarimiz til haqida ko'plab hikmatli so'zlarni aytganlar va tilni turlicha ta'riflaganlar. Masalan, "Til-millat ko'z gusi", "Til-ma'naviyat ko'z gusi", "Til-millatning bebaho boyligi" va shu kabilardir. Shuni ta'kidlash kerakki, o'zbek tiliga davlat tili maqomining berilishi xalqimizning milliy mustaqillikka erishish yo'lidagi muhim qadamlaridan biri bo'lgan edi. Istiqlool yillarida mamlakatimizda barcha sohalarida bo'lgani kabi tilimiz taraqqiyotida ham muhim o'zgarishlar yuz berdi. O'zbek tilining xalqaro miqyosda obro'si oshdi. "Davlat tili haqida"gi qonun ona tilimizning bor go'zalligi va jozibasini to'la namoyon etish bilan birga, uni ilmiy asosda rivojlantirish borasida ham keng imkoniyatlar yaratdi. Olimlar va mutaxassislar tomonidan ilm-fan va turli sohalariga oid ensiklopediya va lug'atlar, darslik va o'quv qo'llanmalari chop etildi. Mumtoz adabiyotimiz namunalari, sakson mingdan ziyod so'z va so'z birikmasini, fan, texnika, sanoat, madaniyat va boshqa sohalariga oid atamalarni, shevalarda qo'llaniladigan so'zlarni o'z ichiga olgan besh jildlik "O'zbek tilining izohli lug'ati" bu borada amalga oshirilgan ishlarning eng muhimlaridandir.

O'quvchilarda ta'lim olishga bo'lgan ijobiy intilish va ehtiyojni shakllantirish, o'zaro bellashuv elementlarini joriy etish hamda o'quvchilarda muntazam ravishda o'qishga qiziqish uyg'otish maqsadida yangi zamonaviy pedagogik va axborot texnologiyalarini izlashda ijobiy faollikni oshirish zarur bo'lib qoldi. Ta'lim rivojining buguni va istiqboli bugun sinfda dars berayotgan o'qituvchiga ko'p jihatdan bog'liq. Zero, o'qituvchi maktabda asosiy figura hisoblanar ekan, u o'ziga bildirilgan ishonch, yosh avlod tarbiyasidek murakkab, mas'uliyatli vazifani sidqidildan bajarmog'i zarur.

O'qish sifatini yanada oshirish davr talabi bo'lib qolgan shu kunlarda darslarni noan'anaviy usulda olib borish keng yo'lga qo'yilgan. Ta'lim jarayonini yangi mazmun va shaklda yo'lga qo'yish masalasi, eng avvalo, ona tili ta'limiga taalluqlidir.

O'zbekiston Respublikasining birinchi prezidenti Islom Karimov: "Ona tilining buyuk ahamiyati shundaki, u ma'naviyat belgisi sifatida kishilarni yanada yaqin jipslashtiradi..."

Ma'naviyatni mustahkamlash uchun mablag'ni ayash o'z kelajagiga bolta urish demakdir", - deb aytgan edi.

Ta'lim mazmunining asosini dars tashkil etadi. Dars orqali ilmiy yangiliklar va axloqiy tarbiya o'quvchilarga yetkaziladi. Bugungi kunda darslarimizni zamonaviy ruhda tashkil etib, noan'anaviy usullardan foydalanmay, har bir darsni san'at darajasiga ko'tarmay turib, belgilangan natijaga, ko'zlangan maqsadga erishib bo'lmaydi.

O'zbek xalqi yoshlarini har tomonlama barkamol inson etib tarbiyalash, yangi zamon kishisini shakllantirish hozirgi kunning eng dolzarb masalalaridan biridir. Sir emaski, yosh avlodni to'g'ri tarbiyalash va yuksak fazilatli insonni voyaga yetkazish juda murakkab va mashaqqatli ishdir. shuning uchun mas'uliyatli masalaga har bir davrda zamonaning ilg'or shaxslari mas'uliyat bilan yondashganlar va ta'limtarbiyaning qulay usullarini qidirganlar.

XV asrning mashhur mutafakkiri Davoniy kishi xususiyatlari ikki xil: biri tug'ma, ikkinchisi hayot jarayonida paydo bo'ladigan xususiyatlar deb ajratadi va tug'ma xususiyatlarni tan olgan holda hayot jarayonida paydo bo'ladigan xususiyatlarni inson kamoloti uchun eng muhim omil deb hisoblaydi. Shu bilan birga yetuk inson bo'lish uchun har bir shaxs o'zida quyidagi hislatlarni tarbiyalash lozimligini aytib o'tgan edi.

1. Zukkolik
2. Fahm tezligi
3. Zehn o'tkirligi
4. Bilimni tez egallash qobiliyati
5. Qo'yilgan muammoni tez anglash
6. Esda saqlash qobiliyati
7. Xotira

Shunday qilib, Davomiy haqiqiy baxt-saodatga erishaman degan inson yuqoridagi fazilatlarini egallashga intilishi zarur deb hisoblaydi. Keltirilgan xususiyatlarni shakllantirish va rivojlantirish inson tafakkurining o'sishiga olib keladigan omillardandir. Lekin bu narsa o'z-o'zidan bo'lavermaydi. Buning uchun tinimsiz mehnat, mashqlar zarur. mashhur Amerika fizigi T.Edison buyuk inson bo'lishga bir foiz talant va 99 foiz mehnat zarurligini ta'kidlagan edi.

Yuqoridagilardan xulosa qilib, shuni aytmoqchimizki, darslarni noan'anaviy usulda tashkil etish, darslarning turli bosqichlarida o'yinlardan foydalanib, o'quvchilarning tafakkurini o'stirish zarur. Xulosa qilib aytganda, o'quvchilarni ona tili fanidan yuksak bilim va salohiyatli qilish bugungi kunning talabidir. Nega deganda, hozirda yurtboshimiz tomonidan yosh avlodning chet tillarini bilish darajasini yaxshilashga e'tibor qaratilib, bugungi kunda yoshlarimiz ikkita emas, to'rtta tilni bilishlari zarurligi uqtirilayotgan bir davrda, o'quvchilarning avvalo, o'z ona tillarini yaxshi bilishlari va ona tilida ravon so'zlay va fikrlay olish qobiliyatlarining mavjudligi ularning chet tillarini tez va oson o'zlashtirishlariga zamin yaratadi. Bu esa maktablardagi ona tili va adabiyot fani o'qituvchilariga katta mas'uliyatli vazifa yuklaydi.

REFERENCES

1. Mirziyayev Sh.M. Milliy taraqqiyot yo'limizni qat'iyat bilan davom ettirib, yangi bosqichga ko'taramiz.//Toshkent - 2017, "O'zbekiston", 593b.
2. O'zbekiston Respublikasining "Kadrlar tayyorlash Milliy dasturi", 1997-yi, 29-avgust.
3. Y. G'ulomov "O'zbek tili o'qitish metodikasi" Toshkent-1998-yil.